

**DINIYLIK VA DUNYOVİYLIK MASALASIDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY
TAFAKKURINING MO'TADILLIGI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7799232>

Yunusov Komiljon Alimjanovich

Magistrant (Jurnalistika)

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

komiljonyunuszoda@gmail.com

+998 94 650-44-12

Annotatsiya: *Diniylik va dunyoviylik masalasida me'yorni topa olish oson vazifa emas. Bu borada yakka shaxslar ham, katta davlatlar ham achchiq tajribaga egalar. Shu sababli mazkur maqolada tariximizdagi tub burilishlarga boy davrda yashagan Mahmudxo'ja Behbudiy din yo'lida qanday faoliyat yuritgan-u, dunyo ishlarida jadid sifatida nimalar qilgani haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *diniylik, dunyoviylik, johillik, mo'tadillik, ta'llimning o'rni, ong.*

Annotation: *It is not an easy task to find a standard in the matter of religiosity and secularism. In this regard, both individuals and large countries have bitter experience. For this reason, this article discusses how Mahmudhoja Behbudiy acted in a period full of radical changes in our history, as a religious person and as a modern man.*

Key words: *religiosity, secularism, ignorance, moderation, role of education, consciousness.*

Diniylik va dunyoviylik azaldan g'oyaviy qarama-qarshiliklarga sabab bo'lib kelayotgan masaladir. Insonlar ijtimoiylashib borgani sari jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda mo'tadillikni topolmay jiddiy falokatlarga duch kelmoqda. Masalan, farovonlikka erishish uchun ba'zi hukumatlar boylar sinfini umuman yo'qotgan bo'lsa, xuddi shu zamonning o'zida puldorlar manfaatini ko'zlagan davlatlar ham bor. Shuningdek, qaysidir davlat faqat diniy qoidalar asosida boshqarilayotgan bo'lsa, qayerdadir faqat dunyoviy tartibda amalga oshirilmoqda. Xullas, insoniyat hamon turli tajribalarni qo'llab kelyapti. Afsuski, ko'pkina holatlarda keskinlashish siyosatini ko'ramiz. Bunday keskinlik boshqa qaysidir g'oyani butunlay inkor etishi esa biryoqlama fikrlash oqibatidir. Oltin o'rtalikni topolmay haddan oshib ketish nafaqat siyosatda, balki, kundalik turmushimizning katta-kichik jihatlarida ham kuzatilishi mumkin. Din va dunyoviylik masalasi hozirgi davrimizda ham jahon bo'ylab o'z dolzarbligini yo'qotmagani bois men Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati misolida mo'tadillik qanday yo'lga qo'yilganligi haqida bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tmoqchiman.

Behbudiyni biz yurtimizdagi jadidlar rahnamosi, ma'rifatparvar inson sifatida bilamiz. Xo'sh, bu kishi islom dinidan qanchalik xabardor edi? Teatr tashkil qilgan bir savdogar edimi yoxud hammadan ko'p maqola yozgan jurnalistmi? Keling u kishining diniy bilimdonligi haqidagi manbalar bilan tanishamiz. Hoji Muin, Begali Qosimov, Naim Karimov kabi olimlarimiz izlanishlaridan ma'lum bo'lishicha, Mahmudxo'ja Behbudiyning bobokalonini mashhur Ahmad Yassaviy, otasi Behbudxo'ja qori va tog'asi Muhammad Siddiq qozi

hisoblanadi. Bolalik vaqtida otasidan Qur'on o'rganadi va yod oladi. O'n sakkiz yoshgacha madrasani tamomlab tog'asi qozi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik qiladi. O'z ustida tinmay ishlab, diniy bilimlarini boyitib borganidan so'ng muftiylik lavozimiga ko'tariladi. Behbudiy bir vaqtning o'zida ham muftiy, ham qozi degan sharaflı nomga sazovor kam sonli kishilardan sanaladi. [1] "Zamonasidagi faqihlardan hech biri fiqh ilmining kengligi jihatidan Behbudiya teng kelolmas edi." - deb xotirlagan edi Solih Qosimov. [2]

Mahmudxo'ja Behbudiy 1899-1900 yillarda hajga borishi davomida musulmonlarning bir qancha mashhur shaharlarda bo'lgan va u yerlardan yurtimizga ko'pgina kitoblar olib kelgan. [3]

Sayohatdan qaytib kelib millatimizga nazar solar ekan, taraqqiy etayotgan jamiyatlar oldida ancha qoloqligimizga guvoh bo'ladi. Bunday holatga befarq bo'lomagan Behbudiy millatni yana yuksaltirishdek katta maqsad yo'lida tashabbuslarga qo'l uradi. Mavjud gazeta-jurnallarga doim maqolalar yozib turadi, musulmonlar majlislarida qatnashib nutq so'zlaydi, maktablar ochadi, kutubxona tashkil etadi, teatr tuzib birinchi o'zbek dramaturgi sifatida ibratl tomoshalar qo'yadi. Ya'ni, xalqni ma'rifatli qilish yo'lida bor imkoniyatini ishga soladi. Hatto, yangi binolar qurishga mablag' yo'qligidan o'zi istiqomad qilib turgan uyini bolalar maktabi va kutubxonaga aylantirgan ekan. Qozilik lavozimida halol ishlaganidan daromadsiz qolgach, savdogarchilik bilan shug'ullanishni boshlagan. Savdodan kelgan foydaning katta qismini ta'limga sarf etadi.

Afsuski, hamma ham Behbudiyning qadriga yetmadni. Sababi, jaholat eng avjiga chiqqan zamonda yashagan edi u. Uning mактаб va kutubxonasini kofirxonan, undagi odamlarni kofir va xotinlari taloq deya barilla jar solishardi. Avom xalq shunday desa, "Bilmasdan aytidi-da", - deya o'z odaticha tabassum qilib qo'yardi. [4] Biroq, ulamo shunday fatvo bergani Behbudiya qattiq ta'sir qildi. Teatr tomoshasi haqida esa aytmasa ham bo'laveradi. [5] Mutaassiblik munosabati faqat ta'lim va teatr bilan cheklanmadni, undan tashqari, boshqa millatlarning kiyimlarini kiyish, ular yasagan har qanday buyumdan foydalanish (masalan qoshiq) ham bid'at va kufr deya qaraldi. Behbudiy asli Yassaviy avlodidan bo'lishiga qaramay zamonaviylikdan uzilmadi ham, unga berilmadi ham. U biror-bir yangilikni ko'r-ko'rona olib kirmagan. Shariatga muvofiq kelish yo kelmasligini esa boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushungan. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, muftiy sifatida u fatvo berish huquqiga ega martabali shaxslardan biri hisoblanardi. "Muftiy" arabcha so'z bo'lib, fatvo beruvchi, diniy masalalarda qaror chiqaruvchi ma'nolarini anglatadi. [6] Behbudiyning ayrim reaksiyon din peshvolaridan farqi va afzalligi shundaki, u hech qachon fiqhning biror qoidasini xalq manfaatlari va ijtimoiy taraqqiyotga zarar keltiradigan tarzda talqin qilmagan.

Jurnalist Nusrat Rahmat "Yozuvchi" gazetasining 2000-yil 6-may sonidagi "Mufti" sarlavhali maqolasida hikoya qilishicha, Jomboyda bir ot o'g'irlagan shaxsning qo'lini kesish haqida qozi hukm chiqaradi. Behbudiy esa hukmga e'tiroz bildirib, "Ehtimol, xabarizing yo'qdir. Yaqinda bu jazo bekor qilindi." - deb aytadi. Hukmni bekor qilib obro'sini to'kishni istamagan qozi Qur'onning "Moida" surasidan 38- oyatni olib, o'qib beradi. Bu oyatda «O'g'ri erkakni ham, o'g'ri ayolni ham qilmishlariga jazo bo'lsin uchun, Olloh tomonidan azob bo'lsin uchun qo'llarini kesinglar», degan so'zlar yozilgan ekan. "Buni bekor qilish mumkinmi?" - deb so'raydi qozi. Behbudiy agar o'g'rining qo'llari kesilsa, birinchidan, uning qo'shnilarini, qarindosh-urug'lari o'rtasidagi obro'si yo'qolibgina qolmay, ularning g'azab va

nafratiga duchor bo'lishi, ikkinchidan, uning mehnat bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'lmasligi, jamiyatga naf keltirmasligi, hatto o'z-o'ziga xizmat qila olmasligi va oila a'zolariga tirik tovon bo'lib qolishi mumkinligini e'tiborga olib, jazoning yengilroq bo'lishini istaydi (masalan qamoq) va qoziga Qur'onning "Niso" surasidagi 90-oyatni ko'rsatib o'qiydi: "Olloh afv etguvchi, maxfirat qilguvchi bo'lgan zotdir". Qozi Behbudiyning bu so'zlaridan keyin hukmni bekor qiladi. [7] Guvohi bo'lganimizdek, Behbudiy masalaning faqat bir tomonini o'ylamay, uning oqibati va davr sharoitini ham hisobga oladi.

Mahmudxo'ja maktab o'quvchilariga diniy va dunyoviy ta'llim berish uchun bir qancha darsliklar yozdi. "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Madhali jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muxtasari jug'rofiyai Rusiy" ("Rusianing qisqacha geografiyasi"), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar kitobi"), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi") kitoblari shular jumlasidandir. "Muxtasari tarixi islom" asarida muallif dinni noto'g'ri anglagan oddiy xalqqa sof islom nima ekanligini tushuntirishga harakat qiladi. [8] Undan tashqari xalqning diniy savodxonligini oshirish yo'lida jurnallarda ko'plab maqolalar nashr ettirib bordi. Xususan, "Oyna" jurnalida "Kiyim va tashabbuh masalasi" (1914-yil 14-iyun 34-son), "Qur'oni karim tarixiga bir nazar" (1915-yil 30-yanvar 8-son), "Avvalgi musulmonlarda madaniyat" (1915-yil, 16-aprel 12-son), "Tahsil va safar zamon va taom" (1915-yil 28-fevral 10-son) kabi ijtimoiy-diniy mavzularga bag'ishlangan maqolalari chop etilgan. Ayniqsa, "Kiyim va tashabbuh masalasi" nomli maqolasida Behbudiy shunday aniq dalillar keltiradiki, biz uning qanchalik ilmli bo'lganini his etamiz. Quyida maqolaning o'zini keltirib o'tishni joiz ko'rdik:

"Bir necha yildan beri ba'zi majlislarda ruscha forma kiymak masalasi xususida uzun bahslar bo'lub, ba'zan bu mubohasalar (bahslar) munozara ila tamom bo'lurki, bir necha martaba ko'zimiz ila ko'rduk. Majlisdagi zotlarning barchasi avom sinfigan bo'lsa edi, biz alarning so'ziga ahamiyat bermas eduk. Lekin bir uzr sababli forma kiyganlar haqida akfor (kofirlilik) hukmlarini aksar vaqt muhtaram ulamomiz og'izlaridan eshitarmiz. Forma kiygan nari tursin, hatto uyining tagini pol va ustini tunuka qilganlarni yoki uy ichida ustol, ustul, surat kabi narsa qo'yganlarni akfor qilinur (kofir deyilur). Bu masala haqida Turkistonning har bir shahrida doimo bahslar bo'lub turadur. Ba'zan jaridalarga (gazetalarga) ham yoziladur. Agar forma kiymoq ila yoinki ozgina tashabbuh (o'xshashlik, g'ayridinlarga o'xshash) ila odam kofir bo'laversa, bul suratda musulmonlarning holi mushkul bo'lur. Chunki zamon va madaniyatning taqozosi biz Turkiston musulmonlarini forma kiymoqqa va begona madaniyatni iste'mol etmakka majbur qilishi tabiiydur. Chunonchi, biz bu kun o'g'limizni shahar maktabi va gimnaziyaga qo'ymoqchi bo'lsak yoki bir necha yildan so'ng Turkiston musulmonlaridan askar olinsa, ul holda, albatta, ruscha forma, shapka kiymoq majburiy bo'lur. Hozirda bu ikki holning avvalgisini ko'rib ham majburiy suratda qabul qilub turubmiz. Zamon kelganda, ikkinchisini ham qabul qilsak kerak. Endi kelayluk juz'iy tashabbuhlar masalasigaki, bu: kursi (ustul)ga o'lturmoq, qoshiq iste'mol etmak, medal taqmoq, havoning issig'ligi uchun bosh yalang'och o'turmoq kabi narsalardan iboratdir. Agar bu juz'iy tashabbuhlar ila-da kishi kofir bo'laversa, bas, yer yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim. Chunki zamonning zayli ila ba'zi rasm va odatlar doimo o'zgarib turadurki, bu o'zgarish bobomiz hazrati Odam zamonidan beri voqe' bo'lub kelmoqdadur. Va odatlar ichida foydali va yaxshisi bo'lganidek, yomon va zararligi ham bordur. Chunonchi, burung'i

zamonda isroflik to'y va aza kabi yomon odatlarimiz yo'q edi, so'ogra paydo bo'ldi. Qabul etdik. Emdi buning qo'lidan osonlik ila qutula olmay turubmiz. Agarda bundan so'ng yomon odatlarni tashlab, aning o'rniga din va dunyomizga foydalik odatlarning qabuli sadrig'a tutunsak, bu to'g'rida shariatimiz ham mone' bo'lmasa kerak. Maqsadimiz shariat nuqtai nazaridan kiyim va tashabbuh masalasini bayon etmak ediki, Ovrupo kiyimlarini kiyomoq shariati islomiyacha hech bir zararlik emasdur. Ya'ni shar'an mutlaqo durustdur. Munga inkor qiluvchilar, sunnati rasul, tarixi ummatdan xabarsiz odamlardur. Bularning dalillari ham «Man tashabbaha biqavmin fahuva minhum» (Kimki o'zini biror qavmga o'xshatsa, bas, u o'sha qavm bilan birkadir) hadisidur. Holbuki bu hadis ba'zi ulug' olimlarning so'ziga qaraganda, zaif hadislardandur. Va bu hadisning ma'nosi butun boshqadur. Mundagi tashabbuhdan murod o'zga dinda bo'lgan xalqning dinlarini va axloqi diniyalarini ulug'lab, ani yaxshi deb o'xshamoqni tilamakdur. Yo'q esa hadislarda sobitdurki, rasulimiz sollallohu alayhi vasallam rumlar jubbasini, kisroyi taylasonlarini kiyubdurlar («Miroqot ul mafotih», jildi avval, sahifa - 341) va sahobalar ham shunday kiyimlar kiyganlari uchun hech narsa aytmabdurlar. Va «Sahihi Muslim»da «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam hind majusiyalarining boshlariga kiyadurgan ikki quloqli narsalarini kiygan» deb naql etilmishdur. Va «Mezoni kubro» kitobida ham Imom Molikning majus podshohi hadya etub bergen «kuloh»ni kiyganlari zikr qilingandur. As'hobi kirom shaharlarning fathi uchun turli yerlarga tarqalganda qaysi shaharni olsalar, shul shahar xalqining kiyimlarini kiygandurlar. Tarixga qarasangiz ko'rarsizki, xulafodan al-Mansur musulmonlarga kufforlar kulohlari kabi kulohlari kiyomoqqa amr etgan va buni hech kim inkor etmagandur. Demakki, «man tashabbaha»dan murod «tashabbuh fillibos val-hay'at» emasdur. Yo'qsa, payg'ambarimiz va burungi dindoshlarimizning shunday bo'lmoqlari lozim bo'ladur. Agarda kiyim kiyomoq umuri shar'iyadan bo'lsa edi, bu to'g'rida payg'ambarimizga itoat etmak vojib bo'lur edi. Holbuki, bizlar kiyadurgan liboslarning ko'bisi payg'ambariniz kiygan liboslariga o'xshamaydur.” [9]

Maqola mazmuni ayon bo'lgani bois biroz qisqartirgan holda shu yerda yakunladik. Darvoqe sahobalar kiymagan libos joiz bo'lmasa, milliy kiyimlarimizni kiyolmay qolamiz. Behbudiy aytmoqdaki, sahobalar o'zga millatlarning e'tiqodidan qat'iy nazar liboslari xususida fikr bildirmaganlar va madaniyatlarini hurmat qilganlar, xohlasalar ularni kiyib yurganlar. Yana bir nozik jihat eslatib o'tilmoqda: Islomda to'y isrofarchiligi yo'q ekan, unda nega biz g'ayriislomiylikni odat qilyapmiz? Haqli savol bu. G'ayri islomiy kiyinish mumkin bo'lmasa, to'y kuni (kunlari) nega isrof qilamiz?

Mahmudxo'ja Behbudiy ko'r-ko'rona amal qiluvchi emas, balki diniy va dunyoviy amallarni aql tarozisiga solib, mantiqqa tayanib o'z mustaqil fikrini bildiradigan kishi edi. Yozgan maqolalarining aksariyati tanqidiy-tahliliy janrda ekanligi ham bunga bir isbotdir. Behbudiyda bunday tafakkur ancha ilgari shakllanib ulgurgan chog'i. Sababi, 1915-yil “Туркестанские ведомости” gazetasida yozilishicha, Behbudiy madrasada o'qib yurgan paytning o'zidayoq mullalar, imomlar va qozilar johilligidan shikoyat qilgan ekan. [10]

Biz o'rnak olishimiz lozim bo'lgan yana bir muhim jihat bor. Behbudiy fikrlaganda egoizm yoki subyektiv fikrlash unda ustunlik qilmagan. U doimo obyektiv qarorlar qabul qilardi. Ya'ni, ongi o'z shaxsiyati qobig'idan ancha yuksakka ko'tarilgan, tafakkuri esa nafsidan mustaqil bo'lib, vaziyatga xolis baho berardi. Shuning uchun ham vaqt va mablag'ini ta'limga sarflab yuboravergan. O'z uyini maktabga aylantirgan. Kutubxona yopilganda kitoblarni uyiga

olib kelgan. Eshigi esa hamma uchun ochiq edi. Gazeta va jurnallari ham barchaga ochiq edi. Kim foydali maqola yozsa chop etaverган. Yuqorida aytilgan o‘g‘rining qo‘li kesilmasligi misolidan anglash mumkinki, u fikrlaganda hech bir jihatni unutib qoldirmagan: ijtimoiy ahvolni, ishsizlik va yo‘qchilikni, oilalar manfaatini, farzandlar kelajagini, o‘g‘irlik sababi faqat o‘g‘ri bilan emas, balki jamiyat ham bunga aybdorligini, buning yechimi ilmga e’tibor ekanligini juda teran tushunib turgan. Agar o‘sha o‘g‘ri ham birovning moli haromligini, u ham qiynalib topkanini, shuning orqasidan ro‘zg‘or qilib bolalarini boqayotganini his etganida jinoyat qilmasdi balki. Bugungi jamiyatimizda ham shunday keng fikrlaydigan insonlar ko‘paysa hayotimiz yanada go‘zallahgan bo‘lardi, Behbudiydek bobolarimizning ruhi ham bizdan shod bo‘lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jadidlar/Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022, 7-10-betlar.
2. Solih Qosimov. Behbudiy va jadidchilik // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1990-yil 19-yanvar.
3. Наим Каримов. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент, 2010, 20- бет
4. Ҳожи Муин. Таңланган асарлар. – Toshkent: “Маънавият”, 2005, 6-бет
5. Наим Каримов. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент, 2010, 18- бет
6. Islom ensiklopediyasi, - Toshkent, 2004, 171-bet.
7. Nusrat Rahmat. Mufti // “Yozuvchi” gazetasi, 2000-yil 6-may
8. Jadidlar/Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022, 31-bet.
9. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Kiyim va tashabbuh masalasi // Oyna jurnali, 1914-yil 14-iyun, 34- son
10. Jadidlar/Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022, 9-bet.